

MARKAZIY OSIYO EKOLOGIK INQIROZIDA OROL FOJIASI: UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA SALBIY OQIBATLARI

Sarvar Samar o'g'li Mannonov,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 2507-guruh talabasi

Ilmiy rahbar : Nilufar Dalibayevna Djurayeva,

O'zbekiston tarixi kafedra mudiri, professor

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada Orol dengizining so'nggi ellik yil ichida keskin qurib ketishi va bunga sabab bo'lgan asosiy omillar ilmiy-nazariy tahlil qilinadi va "Orolni qaytarish mumkinmi?", savoliga batafsil javob beriladi. Maqolada shuningdek, dengizni tiklash yoki o'rmini ortiqcha suv zaxiralari bilan to'ldirish bo'yicha olib borilayotgan bir qancha islohotlar va "BMT va Orol" mavzusi keng yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: BMT, qishloq xo'jaligi, kemalar qabristoni, Amudaryo, Sirdaryo, ekologik inqiroz, sho'rlanish, biologik xilma-xillik.

Сарвар Самарович Маннонов,

Узбекский государственный университет мировых языков

Студент факультета перевода, группа 2507

Научный руководитель: **Нилуфар Далибаевна Джураева,**

Заведующая кафедрой истории Узбекистана, профессор

ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ КРИЗИС В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: АРАЛЬСКАЯ КАТАСТРОФА – ЕЁ ПРИЧИНЫ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье проводится теоретический анализ резкого высыхания Аральского моря за последние пятьдесят лет и рассматриваются основные факторы, вызвавшие данный процесс. В работе даётся подробный ответ на вопрос «Возможно ли спасти Аральское море?». Также в статье широко освещаются реформы, направленные на восстановление моря или его заполнение альтернативными водными ресурсами, а также тема «ООН и Аральское море».

Ключевые слова: Организация Объединённых Наций, сельское хозяйство, кладбище кораблей, Амударья, Сырдарья, экологический кризис, засоление, биологическое разнообразие.

Sarvar S. Mannonov,

Uzbekistan State University of World Languages

Student, Faculty of Translation, Group 2507

Academic Supervisor: **Nilufar D.Djurayeva,**

Head of the Department of History of Uzbekistan, Professor

ENVIRONMENTAL CRISIS IN CENTRAL ASIA: THE ARAL SEA DISASTER – ITS CAUSES AND NEGATIVE CONSEQUENCES

ABSTRACT

This scientific article provides a theoretical analysis of the sharp desiccation of the Aral Sea over the past fifty years and examines the main factors that caused this process. The study offers a detailed response to the question, “Is it possible to recover the Aral Sea?”. In addition, the article highlights a number of reforms aimed at restoring the sea or replenishing it with alternative water resources, and gives broad coverage to the topic of “The United Nations and the Aral Sea”.

Index Terms: United Nations, agriculture, ship graveyard, Amu Darya, Syr Darya, ecological crisis, salinization, biodiversity.

Mavzuning dolzarbligi:

Orol dengizi Markaziy Osiyoda, asosan O'zbekiston va Qozog'iston hududida joylashgan yirik berk dengiz bo'lib, uning katta qismi Qoraqalpog'izton Respublikasining shimoliy-g'arbiy qismi – Mo'ynoq qal'asiga to'g'ri keladi. Orol dengizi azaldan O'zbekiston, Qozog'iston va bir qancha davlatlarni suv zaxiralari bilan ta'minlab, ularning ehtiyojlarini qondirib kelgan. U dengiz sathidan taxminan 34 metr balandlikda joylashgan bo'lib, unga Amudaryo va Sirdaryo kabi transchegaraviy daryolar doimiy quyilib turgan. O'sha vaqtda dengiz kattaligi jihatdan dunyoda Kasbiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'llaridan keyingi – to'rtinchi o'rinda turgan. 1960-yilgacha dengizning umumiy yer maydoni 68 ming kvadrat km²ni tashkil etgan. Aynan shu vaqtlarda hududda baliqchilik sohasi eng gullab-yashnagan payt bo'lgan va o'z vaqtida 5 ta baliqchilik zavodi faoliyat olib borgan. Xususan: Mo'ynoq konserva zavodi, Urga, Uchsai, Kazakhdarya va Porlatau zavodlari shular jumlasidandir. Manbalarda keltirilishicha, 1958-yilda Mo'ynoq baliq konserva zavodida (Muynak Cannery) 21.5 million dona baliq konservasi ishlab chiqarilib, butun SSSR bo'ylab tarqatilgan. Biroq, XX asrning 60-yillarida Orolbo'yida qishloq xo'jaligiga bo'lgan e'tiborning oshishi – SSSR rahbarlarining paxtachilikka urg'u berishiga va sug'oriladigan yerlar sonining ortib borishi sabab bo'ldi va markaz tomonidan paxta yakkahokimligi siyosati olib borildi. Bu siyosatda Amudaryo, Sirdaryo va Orol kabi suv havzalari ularning asosiy nishoni bo'lgan. Paxta rejasi to'liq bajarilishi shart edi, shu sababli ham suv istalgancha olinardi, ishlatilardi, biroq hech kim suv balansini hisoblamasdi. Bundan tashqari, 1960-yillarga kelib, Orol dengiziga doimiy quyiluvchi va uni to'yintiruvchi Amudaryo va Sirdaryolarning o'zani boshqa tomonlarga, ya'ni Amudaryo o'zani Qoraqum kanaliga, katta oqimi esa Turkiston cho'llarini – Mirzacho'l va Qarshicho'lini o'zlashtirish uchun burib yuboriladi. Sirdaryo oqimi Qozog'istonning Qizilorda viloyatidagi paxta ekinlarini sug'orish uchun burib yuborilgan. Bu kabi omillar natijasida 1985-1986-yillarda dengiz sathi 53 metrdan 41 metrgacha pasaydi. Bu esa Berg bo'g'izining qurib

ketishiga va dengizning ikki mustaqil suv omboriga – Katta va Kichik suv omborlariga bo‘linib ketishiga sabab bo‘ldi.

Bu holatga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan irrigator, suv xo‘jaligi sohasida taniqli mutaxassis Ismoil Jo‘rabekov o‘zining shaxsiy fikrini bayon etgan : “O‘tgan asrning 60-yillarida O‘rta Osiyoning barcha respublikalarida jadal sur‘atlar bilan cho‘llarni o‘zlashtirish boshlandi. Yiliga 70-80 ming gektar yer o‘zlashtirilar, ularni sug‘orish uchun 600-700 million, ba‘zan 1 milliard kub metrgacha suv sarflanar edi. Sirdaryo va Amudaryodan suv olish shu darajada oshdiki, vaqti kelib daryolar Orolga yetib bormay qo‘ydi. Bugun esa Orolimizni qo‘ldan boy berdik”.

Metodlar va mavzuning o‘rganilganlik darajasi:

Maqolada umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, holislik tamoyillari asosida Markaziy Osiyo ekologik inqirozida Orol fojiasi: uning kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari yoritilgan. Mavzu S.Boymatov, M.Rejabov, M. Berdimuratova, B. Suyunboyev, A.Fatxullayev kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalari:

Orol muammosi Markaziy Osiyo ekologiyasining dolzarb masalasi sifatida global miqyosda muhokama qilinmoqda, chunki dengizning 90% dan ortiq qurishi millionlab odamlarning salomatligi va iqtisodiy barqarorligiga tahdid soladi. Bu masala yuzasidan 1992-yil 18-fevral kuni Qozog‘istonning Olmaota shahrida imzolangan “Davlatlararo suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni birgalikda boshqarish to‘g‘risida”gi kelishuv Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida transchegaraviy daryo suvlari masalasini tartibga solgan ilk mintaqaviy huquqiy hujjat bo‘ldi. Ushbu kelishuv O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston tomonidan imzolangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi suv resurslaridan adolatli, oqilona va barqaror foydalanishni ta‘minlashdan iborat. Kelishuv doirasida suv resurslarini birgalikda boshqarish, ekologik muvozanatni saqlash, davlatlar o‘rtasida axborot almashinuvi va suv taqsimotida kelishuv asosida qarorlar qabul qilish tamoyillari belgilab berildi. Mazkur

hujjat asosida Davlatlararo suvni muvofiqlashtirish komissiyasi (ICWC) tashkil etilib, u suv limitlarini belgilash, vegetatsiya davrida suv taqsimotini muvofiqlashtirish va suv bilan bog'liq nizolarning oldini olishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu kelishuv keyinchalik Orol dengizi muammosi bo'yicha qabul qilingan mintaqaviy bitimlar hamda BMT doirasida ilgari surilgan transchegaraviy suv hamkorligi tashabbuslari uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) tomonidan amalga oshirilayotgan "Strengthening Transboundary Water Cooperation in Central Asia" tashabbusi Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy suv resurslarini, xususan Amudaryo va Sirdaryo havzalarini birgalikda boshqarishni kuchaytirishga qaratilgan muhim xalqaro dastur hisoblanadi. Ushbu tashabbus Orol dengizi inqirozi bilan bevosita bog'liq bo'lib, chunki dengizning qurishi aynan transchegaraviy daryolardan samarasiz va kelishilmagan foydalanish oqibatida yuzaga kelgan. Dastur doirasida suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash, Orolbo'yi hududida ekologik vaziyatni yaxshilash hamda suv bilan bog'liq nizolarning oldini olish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. UNECE davlatlar o'rtasida huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, institutsional salohiyatni oshirish, ma'lumot almashinuvi va qo'shma monitoring tizimlarini rivojlantirish orqali Orol dengizi muammosini yumshatishga hissa qo'shmoqda. Ushbu tashabbus BMTning 1997-yilgi Transchegaraviy suvlar to'g'risidagi konvensiyasi tamoyillariga tayangan holda, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida suv diplomatiyasini mustahkamlash va Orol dengizi inqiroziga qarshi mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Orol fojiasi BMTda 2017-yildan beri alohida e'tibor markazida turib, 2021-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan maxsus rezolyutsiya qabul qilingan bo'lib, bu Orolbo'yi mintaqasida yangi hamkorlik sahifasini ochgan. 2024-yilda COP29 doirasida BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) Boku shahrida Orol dengizi bo'yicha 6 yillik loyihalar natijalarini taqdim etgan, shu jumladan "Yashil Orol dengizi" tashabbusi orqali 80 ming saksovul ko'chatlari ekilgan. BMT Bosh kotibi va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqlarida fojiani global iqlim o'zgarishi

bilan bogʻlab, xalqaro moliyalashtirishni (Orol dengizi jamgʻarmasi orqali) taqozo etgan. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasiga qatnashish maqsadida BMTning bosh qarorgohi – Parij shahriga tashrif buyurdilar va rasmiy nutq chogʻida aynan Orol fojiasini ekologik muammo sifatida koʻtardilar:

“Muhtaram Rais janoblari!

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni taʼminlash bilan bogʻliq muammolar toʻgʻrisida soʻz yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab oʻtolmaymiz. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari oʻzaro chambarchas bogʻliq", degan pozitsiyasini toʻla qoʻllab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yoʻli yoʻq. Oʻzbekiston BMTning preventiv diplomatiya boʻyicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish toʻgʻrisidagi konvensiyalar loyihalarini qoʻllab-quvvatlaydi. Bugungi kunning eng oʻtkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor eʼtiboringizni qaratmoqchiman.

Mana, mening qoʻlimda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. Oʻylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yoʻq. Dengizning qurishi bilan bogʻliq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi saʼy-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr koʻrgan aholiga amaliy yordam koʻrsatish boʻyicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur toʻliq amalga oshirilishi tarafdorimiz[1]”. Aynan muxtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bosh gʻoyadan soʻng bir qancha Orolni qutqarish borasida chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2018-yilning noyabr oyida yurtboshimizning Qoraqalpogʻizton Respublikasiga tashriflari chogʻida yuqoridagi masalga jiddiy yondashib, “2018-2022-yillarda 2 million hektarga yaqin maydonda choʻl oʻsimliklarini koʻpaytirish toʻgʻrisida” Qaror qabul qilindi. Bundan tashqari, 2024-yilning 26-mart kuni erta tongdan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AK, “Navoiy uran” davlat korxonasi va shu kabi bir qator

muassasalar tomonidan 100 nafar yoshlar doirasida “Orol taqdiri – kelajak avlod taqdiri” shiori ostida qurigan dengiz atrofida saksovul ko‘chatlarini o‘tkazish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumaniga qarab yo‘l olishadi. Shu bilan birga, o‘tgan yillarda dengizning suv qurigan qismida 1 million 524 ming gektar to‘qayzor barpo etilgan. Buning uchun saksovul, qorabo‘roq, qandim, cherkez kabi cho‘l o‘simliklaridan qariyb 6 ming tonna urug‘ tayyorlanib, qiyin sharoitlarda ekilgan. Bu ishlarda 4 mingdan ziyod ishchi qatnashib, 1 ming 600 dona texnika, samolyotlar jalb etilgan va kelgusida orolbo‘yining flora va faunasini yaxshilash bo‘yicha 5 yillik milliy dastur ishlab chiqish vazifasi oldinga qo‘yildi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: “Orolni qaytarish imkoni bormi?”, aytishimiz mumkinki, “Ha”, lekin bunga osonlikcha erishib bo‘lmaydi. Buning uchun judda katta sarmoya va uzoq muddat talab etiladi. Ish shunday oson kechganida, aytingchi Meksikadagi Kolorado daryosini qaytarmagan bo‘larmidik?

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, Orol dengizi XX asrning eng yirik ekologik fojialaridan biri bo‘lib, uning qurib borishi insonning tabiatga noo‘rin aralashuvi natijasidir. Amudaryo va Sirdaryo suvlarining asosan sug‘orish maqsadida haddan tashqari yo‘naltirilishi dengiz sathining keskin pasayishiga, biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga va mintaqada iqlim sharoitining yomonlashuviga olib keldi. Buning oqibatida Orolbo‘yi hududida aholi salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy holat va ekologik muvozanat jiddiy zarar ko‘rdi. Bugungi kunda Orol muammosi nafaqat mintaqaviy, balki global ekologik masala sifatida qaralmoqda. Uni to‘liq tiklash imkoni cheklangan bo‘lsa-da, Orolbo‘yi hududini barqaror rivojlantirish, yashil hududlarni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali fojiaiy oqibatlarni yumshatish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ijtimoi tarmoqdagi rasmiy sayti President.uz, 20.09.2017-yil.

2. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000-y.
3. Gazeta.uz , 2019-yil 8-fevral.
4. “Konchilar hayoti” gazetasi. 2024-yil 9-aprel.
5. Xalq so‘zi.uz. 2019-yil 6-fevral.
6. “President.uz, 2017-yil 20-sentyabr.
7. Agreement on Cooperation in the Field of Joint Management of the Use and Protection of Interstate Water Resources. Alma-Ata, 18 February 1992.
8. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Strengthening Transboundary Water Cooperation in Central Asia.